



INFORMATIKA O‘QITUVCHILARINING KASBIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INTERNET TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Nishonov Akmal Obidovich,

**Farg‘ona viloyati pedagogik mahorat markazi
“Amaliy fanlar va axborot texnologiyalari” kafedrası dotsenti**

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta‘lim maktablari informatika o‘qituvchilarining kasbiy sifatlarini rivojlantirish jarayonida internet texnologiyalaridan foydalanishning dolzarb ahamiyati yoritib berilgan. Maqolada informatika o‘qituvchilarida axborot kompetentligini, shaxsiy va ijtimoiy kompetentlikni, innovatsion va kommunikativ salohiyatni shakllantirishda internet resurslari hamda ommaviy axborot vositalarining o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, dars jarayonini zamonaviy pedagogik va multimedia texnologiyalari asosida tashkil etish, o‘qituvchilarning mustaqil izlanish va o‘z ustida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan. Maqola natijalari informatika o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini oshirish hamda raqamli ta‘lim muhitiga moslashuvchan pedagog kadrlarni tayyorlashda muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: informatika o‘qituvchisi, kasbiy kompetentlik, internet texnologiyalari, axborot kompetensiyasi, raqamli ta‘lim muhiti, multimedia vositalari, innovatsion pedagogika, uzluksiz kasbiy rivojlanish.

Ma‘lumki, hozirgi kunda inson axborot olamida yashaydi. Shuning uchun u o‘qishda ham, kundalik faoliyatda ham muaffaqiyatlarga erishish uchun zaruriy axborotga ega bo‘lish, ularni izlab topish, undan keraklisini ajratib olish va foydalanishni o‘rganishi kerak. Zero mehnat bozorining o‘zgarib borishi, taraqqiyot jadallashuvi, axborot muhiti glabollashishi ta‘sirida maktab bitiruvchisiga qo‘yilayotgan talablar murakkablashib boraveradi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy maktab o‘z faoliyatini tashkil etishda nafaqat bugungi davr talablarini inobatga olishi, balki o‘quvchilarni ertangi kun talablariga ham



tayyorlashi zarur. Albatta, XXI asrning ikkinchi yarmida hayot qanday kechishi, qanday bilimlar kerak bo'lishini shiddat bilan rivojlanib, o'zgarib borayotgan zamonda aniq prognoz qilish qiyin. Shu bois maktab o'quvchilariga bilim berish bilan birga, ularda mustaqillik, tashabbuskorlik, hamkorlik, vaziyatni real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va undan oqilona foydalanish, tez kirishuvchanlik xususiyatlarini shakllantirib, har qanday o'zgarishlarga konstruktiv moslasha olish qobiliyatini rivojlantirib borish lozim.

Oldimizda turgan bu dolzarb vazifa mustaqil hayotiy pozitsiya, ijtimoiy faollik, yuksak aqliy va ma'naviy salohiyatni shakllantirishga qaratilgan shaxsga yo'naltirilgan ta'limni hayotga yanada kengroq tatbiq etishni taqozo etadi.

Buning uchun informatika o'qituvchisi o'z kundalik faoliyatida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh kadr bo'lib yetishishi uchun ijtimoiy kompetentlik, maxsus (psixologik, metodik, axborot, kreativ, innovatsion, kommunikativ) kompetentlik, shaxsiy kompetentlik, texnologik kompetentlik, ekstremal kompetentlik kabi kasbiy sifatlarga ega bo'lishi lozim.

Biz quyida umumiy o'rta ta'lim maktablari informatika o'qituvchilarida ayrim kasbiy sifatlarni rivojlantirishda internet texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha o'z tavsiyalarimizni bayon qilmoqchimiz.

Jumladan, informatika o'qituvchilarida axborot kompetentligini rivojlantirish uchun ularni axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinli, samarali foydalana olishga tayyorlash lozim. Buning uchun informatika o'qituvchilariga oldindan mavzu bo'yicha savolnoma berib qo'yiladi. Bunda informatika o'qituvchisi o'zi mustaqil ravishda harakat qilib, kerak bo'lsa hamkasblaridan yordam olib yoki internet, radio, televideniye va matbuot, kutubzona materiallaridan foydalanib yangi dars mavzusiga tayyorlanib keladi.

Informatika o'qituvchilari malakali kadr bo'lib yetishishlari uchun ular mavzuga oid ma'lumotlar orqali o'z-o'zini aqliy rivojlantirib borishi va intellektual kamolotga intilishi,



o‘z ustida mustaqil ravishda muntazam ishlay olishi, kundalik faoliyatda uchraydigan muammolarni mustaqil hal eta olishi zarur. Bu degani ular o‘z xatti-harakatini xolisona baholash, o‘z-o‘zini nazorat qila olish, halollik, to‘g‘rilik kabi shaxsiy sifatlarga ega bo‘lishlari kerak.

Informatika o‘qituvchilari ekstremal kompetentlikka ega bo‘lish uchun o‘zlarida shaxs sifatida doimiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirish, mustaqil o‘qib-o‘rganish, mustaqil ravishda izlanish, kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal eta olish sifatlarini rivojlantirib borishlari lozim. Shuningdek, informatika o‘qituvchilarida ijtimoiy kompetentlikning shakllanganligi ularda vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e‘tiqodli bo‘lish, badiiy va san’at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish kabi layoqatlarning shakllantirilganligi orqali baholanadi.

Informatika o‘qituvchilarida mazkur kasbiy-pedagogik kompetentlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirishda internet texnologiyalari va ommaviy axborot vositalari alohida o‘rin tutadi. Shu sababli informatika o‘qituvchilarini axborotlardan foydalanish va ishlash, Internet orqali muloqot qilish va izoh qoldirish madaniyatiga o‘rgatish, ularga qaysi internet resurslaridan foydalanish mumkinligi to‘g‘risida yo‘l-yo‘riqlar berib borish maqsadga muvofiq. Shuningdek, informatika o‘qituvchilarida mazkur kompetensiyalarni shakllantirish uchun darslarni zamonviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, imkoni bo‘lsa multimedia texnologiyasidan foydalanish lozim bo‘ladi. undan tashqari ularga darslarda darslik, turli gazeta, jurnal, qo‘shimcha adabiyotlar, lug‘atlar, internet resurslaridan foydalanishni o‘rgatish kerak.

Chunki o‘z vaqtida olingan to‘g‘ri va sifatli axborot turli sohalarda aniq qaror qabul qilish imkonini beradi. To‘g‘ri sifatli axborot insonlar, ayniqsa yoshlarning dunyoqarashini boyitishi, bilim olishi, zamonaviy bilimlar egasi bo‘lishi imkonini beradi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: “O'zbekiston”, 2021. – 464 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori. – Toshkent, 2022-yil 17-yanvar, 25-son.
3. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015.
4. Omonov H.T., Xo'jayev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: “Moliya-iqtisod”. 2012.
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2022-yil 20-yanvardagi “Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy etish to'g'risida”gi 18-son buyrug'i bilan tasdiqlangan umumiy o'rta ta'lim muassasalari pedagog xodimlarini ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish shaklidagi uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining namunaviy o'quv dasturi.